

AUTIZM KASALLIGINI KELIB CHIQISH SABABLARI

Nakibova Nigora Avazxonovna
Pop Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat Salomatligi Texnikumi
Mutaxassisli fan o'qituvchisi

Annotatsiya: autizim hozirgi kunda bolalar va kattalar orasidanotug'ri sog'lom turmish tarzi oqibatida juda kup uchrayapti. Bolalarda hozirgi kunda uyali oloqalardan juda foydalanish.Homilador ayol soglom turmush tarziga rio qilmaslik oqibatidabolalar orasida AUTIZIM rivojlanib bormoqda.

Kalit so'zlar: autizim oqsil buzilishi, kuchli stress, qon bosimning oshishi,tushkinlik, suniy ovqatlar, Retta sindrom, Asperga sindrom, animiya, qorg'oshin va simobni kupayibketishi.

Autizm kasalligini kelib chiqish sabablari

Olimlarning fikricha,autizm kassaligini kelib chiqish sabablaridan biri bu – homilani ona qornidalik davrida ma'lum bir turdagi oqsillarning yetishmovchiligi. Ikkinchi sababi, organizmda ikki xil og'ir metalning, qo'rg'oshin va simobni, ko'payib ketishi. Uchinchi sabab atrof muhitni ekologik buzilishi va homiladorlik paytida kuchli stress holatlarini kechirish. Anemiya hamda qon bosimning oshishi, buyrakda bosim oshishi – bularning hammasi autizimni kelib chiqish sabablari hisoblanadi. Bundan tashqari autizm kasalligi belgilarining kengayishini, ya'ni rivojlanishdan ortda qolish belgilari Retta sindromi, Aspergera sindromi va autizmning klassik simptom komplekslarining ko'p uchrashi.

Autizm kasalligi yoshga qarab quyidagilarga bo'linadi:

Erta bolalik autizmi – 2 yoshgacha;

Bolalik autizmi – 2-11 yoshgacha;

O'smirlik autizmi 11-18 yoshlargacha.

Autizm belgilari

- Muloqotda o'z-o'zi bilan gaplashish, har xil qo'l harakatlari qilish;
- Bolaning onasiga bee'tiborliligi (kulish, jismoniy harakatlar, ovoz chiqarishlar);
- Bolaning «tayyorgarlik» holati yo'qligi ya'ni uni ko'tarishga uringanda qo'llarini cho'zmasligi, tizzalarida turishga harakat qilmasligi, emishdan butunlay to'xtashi;
- Jamoa bilan o'ynashni istamaslik, ota-ona va boshqalar bilan o'ynaganda injiqlik qilish, yolg'iz holda o'ynashni xohlash;
- Ovoz, yorug'likka bo'lgan sezuvchanlikning oshib ketishi, bundan tashqari qo'rqitish, baqiriq, arg'imchoq uchish kabi o'yinlar paytida injiqliklar qilish;

- Gapirish qobiliyatining susayishi, hatto mutizm holatigacha. Exolaliyalar, ya'ni so'zlarni takrorlash, ota-onadan eshitgan iboralarni qayta-qayta aytib yurish yoki multfilmda eshitgan so'zlarni doimo aytib yurish, bu Asperger sindromi deyiladi;

- Buyruqlarni bajarmaslik, buyumlarni ko'rsatsa qaramaslik, o'zining ismiga e'tibor bermaslik;

- Belgilangan tartibga qat'iy rioya qilishi, ya'ni bir vaqtda uyg'onishi, buyumlarni bir joyda saqlash, jismlar shakliga qarab saralash va shu kabilar;

- Xavflardan qo'rqmaslik: balandlik, avtotrassa, hayvonlardan qo'rqmaslik, lekin oddiy buyumlardan qo'rqish, masalan qaynab turgan choynak, elektr yoqgich va shu kabilar;

- Jahldorlik, kulgi, vahimaning o'z-o'zidan paydo bo'lishi;

- Ba'zi bir g'ayritabiiy holatlarga e'tibor qaratish, masalan eslab qolish qiyin bo'lgan sonlarni eslab qolish, qo'shiqlar so'zlarini esda saqlash, o'qib bo'lmaydigan yozuvlar yozish;

Davolash maqsadida ortda qolayotgan jihatlarni korrektsiya qilish uchun barcha turdagi autist bolalarga mos keladigan quyidagi chora tadbirlar qo'llash mumkin:

- Gapirish qobiliyatini yaxshilash maqsadida logoped bilan mashg'ulotlar olib borish;

- So'zlashish uchun rasmi kartochkalardan foydalanish yoki planshet, kompyuterda so'zlarni yozib o'rgatish;

- Bola bilan har xil o'yinlar o'ynash, bir sferada faqat bir mutaxassis bilan;

Autizmga chalingan bemor bolalarni qanday bo'lsa, shunday qabul qilish kerak. Kattalar buni o'z vaqtida aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlashlari zarur. Autizm kasalligi homila ona qornidalik davridayoq uning bosh miyasi rivojlanishida ba'zi oqsillarning yetishmasligi sababli paydo bo'lishi mumkin, degan taxminlar mavjud. Bu xastalikning irsiyat bilan bog'liqligi hali to'liq o'rganilmagan. Amerikalik va fransiyalik olimlar guruhi bosh miya rivojlanishining ilk bosqichlarida hid sezishda ishtirok etadigan o'zak hujayralarni o'rganish zarur, degan xulosaga kelishdi. Chunki, burundan osonlik bilan olinadigan biopsiya surtmasi bu hujayralarni o'rganishda bebaho usul hisoblanadi.

Adabiyotlar:

- 1.V.S. RAXMONOVA “ DEFEKTOLOGIYA ASOSLARI” TOSHKENT 2018
- 2 Z.R. IBODDULLAYEV “TIBBIY PSIXOLOGIYA” TOSHKENT 2000

Internet saytlar:

1. www.ziyonet.uz (<http://www.ziyonet.uz/>)
2. www.google.uz (<http://www.google.uz/>)
3. www.arxiv.uz